



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTEGRATSIYALASHGAN FAN LOYIHASINI SHAKILLANTIRISH USULLARI

Meliyeva Dilfuza O'ralovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

Bobomurodova Mohira

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakultiteti, 3BT-S-21guruh talabasi

[https://doi.org/ 10.5281/zenodo.17336852](https://doi.org/10.5281/zenodo.17336852)

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan fan loyihalarini shakllantirish usullari tahlil qilingan. Integratsiyalashgan yondashuv orqali o'quvchilar bilimlarni yaxlit o'zlashtirish, fanlararo bog'liqlikni anglash va amaliyotga tatbiq etish imkoniga ega bo'ladilar. Loyiha asosida tashkil etilgan ta'lim o'quvchilarda ijodkorlik, mustaqil izlanish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, integratsiyalashgan ta'lim, fanlararo bog'lanish, loyihaviy faoliyat, metodik yondashuv, o'qituvchi roli, innovatsion texnologiyalar, ijodiy faollik, kompetensiya, baholash mezonlari.

Abstract: This article analyzes the methods of developing integrated subject projects in primary education. Through an integrated approach, students are able to acquire knowledge holistically, understand interdisciplinary connections, and apply their learning in practice. Project-based learning contributes to the development of creativity, independent inquiry, and teamwork skills among students.

Keywords: Primary education, integrated learning, interdisciplinary connection, project-based activity, methodological approach, teacher's role, innovative technologies, creative activity, competence, assessment criteria.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы формирования интегрированных учебных проектов в начальном образовании. Интегрированный подход позволяет учащимся усваивать знания целостно, понимать межпредметные связи и применять их на практике. Обучение на основе проектов способствует развитию у школьников творческих способностей, самостоятельного поиска и навыков работы в коллективе.

Ключевые слова: Начальное образование, интегрированное обучение, межпредметные связи, проектная деятельность, методический подход, роль учителя, инновационные технологии, творческая активность, компетентность, критерии оценивания.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim tizimida ta'lim jarayonini takomillashtirish, o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish va ularni hayotga tayyorlashda fanlararo integratsiya muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'limda integratsiyalashgan yondashuv orqali o'quvchilar nafaqat alohida fanlarni o'zlashtiradilar, balki ular orasidagi o'zaro bog'liqlikni ham chuqurroq anglaydilar. Bu jarayon bolalarda keng qamrovli dunyoqarash, ijodiy fikrlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Integratsiyalashgan fan loyihalarini tashkil etish, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida samarali bo'lib, o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi, bilimlarni hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash imkonini beradi va jamoada ishlash ko'nikmalarini



rivojlantiradi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda loyihaviy faoliyatning o'rni beqiyos bo'lib, u o'quvchining mustaqil izlanuvchanligini rag'batlantiradi, ijodiy salohiyatini yuzaga chiqaradi. Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan fan loyihalarini shakllantirish usullari, ularning metodik asoslari, tashkil etish bosqichlari va samarali amalga oshirish yo'llari atroflicha tahlil qilinadi.

Integratsiyalashgan ta'lim – bu turli fanlar o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlash orqali bilimlarni yaxlit holda o'quvchilarga yetkazish jarayonidir. Boshlang'ich sinflarda bu yondashuvning qo'llanishi o'quvchilarga atrof-muhitni yaxlit ko'rish, fanlararo bog'lanishlarni tushunish va kundalik hayot bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Bunday ta'lim nafaqat bilim berishga, balki tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishga ham xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida loyihaviy faoliyatni yo'lga qo'yish o'quvchilarda mustaqil fikrlashni, izlanishni va ijodkorlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Fan loyihalari odatda bir nechta fanlarni qamrab olgan holda ishlab chiqiladi. Masalan, "Tabiatni asrash" loyihasi biologiya, ona tili, tasviriy san'at va texnologiya fanlarini birlashtirgan holda tashkil etilishi mumkin. Bu jarayon orqali o'quvchilar tabiatni sevish va asrashni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham o'rganadilar. Boshlang'ich ta'limda integratsion loyiha yaratish o'ziga xos bosqichlarga ega. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin. Maqsad va vazifalarni belgilash – loyiha qaysi fanlar integratsiyasiga asoslanishi va qanday natijaga erishilishi aniqlanadi. Loyiha rejasini ishlab chiqish – o'quvchilar faoliyatini yo'naltirish, ish tartibini belgilash va o'qituvchining rahbarlik rolini aniqlash. Ijro jarayoni – o'quvchilar guruhlarda yoki individual shaklda izlanish olib boradilar, amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Natijalarni taqdim etish – loyiha yakunida o'quvchilar o'z ishlari natijasini taqdimot, ko'rgazma yoki ijodiy chiqishlar orqali namoyon etadilar. Baholash va tahlil qilish – loyiha samaradorligi, o'quvchilarning faol ishtiroki va qo'lga kiritilgan yutuqlar tahlil qilinadi. Shuningdek integratsiyalashgan fan loyihalarini shakllantirishda foydalaniladiga metodik yondashuvlarni ham bilib olish maqsadga muvofiq. Integratsiyalashgan fan loyihalarini shakllantirishda biz quyidagi metodik yondashuvlardan foydalanamiz: Muammoli ta'lim – o'quvchilarni muammoli vaziyatlarga jalb etish orqali ularning mustaqil fikrlashini rag'batlantirish. Ijodiy topshiriqlar – fanlararo bog'liqlik asosida ijodiy ishlarni (rasm chizish, insho yozish, modellar yaratish) tashkil etish. Guruhli ish – hamkorlikda faoliyat yuritish orqali jamoaviy ishlash ko'nikmasini rivojlantirish. Amaliy mashg'ulotlar – o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini berish. O'qituvchi integratsion loyihalarni tashkil etishda yo'naltiruvchi va rahbar sifatida ishtirok etadi. U o'quvchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatadi, ularning qiziqishlarini hisobga oladi va izlanishga rag'batlantiradi. Shuningdek, o'qituvchi loyiha jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda yordamchi bo'ladi. Integratsiyalashgan fan loyihalarining afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi: O'quvchilarning bilimlari kengayadi va mustahkamlanadi, amaliy ko'nikmalar shakllanadi, jamoada ishlash, fikr almashish va muammoni hal etish malakalari rivojlanadi.

Boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan fan loyihalarini shakllantirish o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Fanlararo bog'lanish asosida tashkil etilgan loyihalar bolalarda keng qamrovli dunyoqarash, ijodiy fikrlash va hayotiy vaziyatlarga moslashish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, bunday ta'lim jarayoni o'quvchilarning mustaqil izlanish, jamoada ishlash, mas'uliyatni his qilish kabi muhim kompetensiyalarini



shakllantirishga xizmat qiladi. Integratsiyalashgan ta'lim loyihalarini amalga oshirishda o'qituvchining metodik mahorati va rahbarlik roli beqiyos ahamiyat kasb etadi. To'g'ri yo'lga qo'yilgan loyiha jarayonlari o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtiradi va ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi. Demak, boshlang'ich ta'limda integratsion fan loyihalari o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishida, ularda mustaqil fikrlash va ijodkorlikni shakllantirishda, shuningdek, zamonaviy jamiyat talablariga javob beruvchi shaxsni tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov A., To'raqulov U. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
2. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Ta'limda integratsiya masalalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
3. Ziyayeva D. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. Meliyeva, D. O. (2025). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MUSTAQIL ISHLASH KO'NIKMALARINI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI. *Inter education & global study*, (2), 320-328.
5. Мелиева, Д. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirishning davlat miqyosidagi ahamiyati. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 1106-1108.
6. Dewey J. *Experience and Education*. – New York: Macmillan, 1938.
7. Bruner J. *The Process of Education*. – Harvard University Press, 1960.
8. Vygotsky L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
9. Shukurova N. Boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: TDPU, 2022.
10. Qodirova F. Integratsiyalashgan ta'limning nazariy asoslari. – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2021.